

Uzbekistan Airways "Avtomobilsiz kun" tashabbusini qo'llab-quvvatladi

2025 22 Sentabr

22-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasida "Avtomobilsiz kun" (World Car Free Day) ekologik aksiyasi o'tkazilmoqda.



"Uzbekistan Airways" AJ ushbu tashabbusda faol ishtirok etdi. Aksiyaning rahbarlari: Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari Umid Xusanov, Yagona axborot xizmati boshlig'i Muzaffar Suyarov, marketing va tashuvlar sotuvi departamenti direktori Zafar Salimov, marketing va tijoratni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Shuhrat Mirsaidov o'z shaxsiy namunalari bilan qo'llab-quvvatladilar.

Shu tarzda aviakompaniya ekologik madaniyatni shakllantirish, havoning ifloslanish darajasini kamaytirish va yanada sog'lom shahar muhitini yaratishga hissa qo'shishga tayyorligini amalda ko'rsatdi.





